

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

TILLAR KAFEDRASI

HISOBOT

Assistentlar Yuldashev Bobir va Mavlonova Feruzaxonning amaliyotlari haqida



Amaliyotning maqsadlari: Xalqaro ta‘lim hamkorligi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish; professional ko‘nikmalarni rivojlantirish; kelajakdagi akademik va ilmiy tadqiqotlar uchun aloqalarini o‘rnatish.

Amaliyot muddati: 2025-yil 13-yanvardan 17-yanvargacha.

Qabul qiluvchi universitet: Krakov AGH Universiteti (Akademia Górniczo-Hutnicza im. Stanisława Staszica w Krakowie)

Rahbar: mgr Rafal Glowach

Krakovdagi AGH Universitetida bir haftalik amaliyot juda qimmatli va unutilmas tajriba bo‘ldi. Ushbu besh kun davomida biz xalqaro hamkorlik sohasidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish va Erasmus+ dasturi tomonidan taqdim etilayotgan madaniyat, an‘analar va ta‘lim imkoniyatlari haqida ko‘proq bilish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Amaliy mashg‘ulotlar va seminarlar nafaqat ta‘lim sohasidagi dolzarb muammolar va istiqbollar bilan tanishishimizga, balki turli davlatlardan kelgan ishtirokchilar bilan aloqalar o‘rnatishga yordam berdi. Ayniqsa, turli universitetlarning umumiy yo‘nalishlarini integratsiyalashga bag‘ishlangan seminar foydali bo‘ldi, bu yerda til to‘sиг‘ини yengish va akademik mobillik imkoniyatlari kabi muhim masalalar muhokama qilindi.

Krakov AGH Universitetida bir haftalik amaliyot bo‘yicha hisobot

1-kun: Erasmus+ dasturi va darslarni o’tish



Bizning bir haftalik amaliyotimiz Erasmus+ dasturiga bag‘ishlangan kirish sessiyasi bilan boshlandi. Bu dastur Yevropa Ittifoqi

mamlakatlari va dunyoning boshqa mamlakatlari o‘rtasida tajriba almashish maqsadini ko‘zlaydi.



Ishtirokchilarga dasturning maqsadlari, talabalar va o‘qituvchilar uchun imkoniyatlar, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari haqida bat afsil ma‘lumot berildi.



Birinchi kuni O'zbekiston haqida ikkita amaliy mashg'ulot ham o'tkazildi. Ushbu mashg'ulotlarda AGH Universiteti talabalari O'zbekistonning madaniyati, an'analari va urf-odatlari haqida batafsil ma'lumot olishdi. Milliy taomlar, bayramlar, oila an'analari va tarixiy joylar kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, O'zbekiston va Polshadagi IT texnologiyalarining roli muhokama qilindi, chunki talabalar mutaxassisligi kompyuter texnologiyalari sohasiga qaratilgan edi. Mashg'ulotlar ishtirokchilarning katta qiziqishini uyg'otdi, natijada faol savollar va muhokamalar yuzaga keldi.


2-kun: Ikki tomonlama diplom dasturi va NAWA

Ikkinci kun ikki tomonlama diplom dasturini taqdim etish bilan boshlandi. Ushbu dastur talabalarga AGH Universiteti hamda boshqa bir universitetning diplomini bir vaqtning o'zida olish imkonini beradi. Dasturga qo'shilish shartlari, uning afzalliklari va muvaffaqiyatli hamkorlik misollari taqdim etildi.



Keyinchalik konferensiya ishtirokchilari Polshaning Milliy Akademik Almashuv Agentligi (NAWA) dasturi bilan tanishishdi. Bu dastur akademik mobillik, tadqiqot va ta'lim loyihalari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ariza topshirishning amaliy jihatlari va hamkor mamlakatlar talabalari va o'qituvchilar uchun istiqbollariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, "Turli universitetlarning umumiyo'yonalishlarini integratsiyalash usullari" mavzusida seminar o'tkazildi. Bu yerda umumiyo'yqliqishlar, muammolar va ularning yechimlari kabi masalalar muhokama qilindi. Bizning jamoamiz tarkibida AGH Universiteti o'qituvchisi va ikki tomonlama diplom dasturi bo'yicha xalqaro tashkilot vakili ishtirok etdi. Muhokama davomida quyidagilar aniqlandi:





- Umumiy qiziqishlar: turli xalqaro konferensiyalarda qatnashish imkoniyati, o'qituvchi va talabalarning tajriba almashuvi; ikki tomonlama diplom dasturi va Yevropaning turli mamlakatlarida amaliyot o'tash imkoniyati.
- Muammolar: xorijda o'qishni xohlovchi talabalar va mutaxassislar o'rtasida til to'sig'i; xorijiy tilni o'qitish bo'yicha malakali kadrlarning yetishmasligi.
- Yechimlar: "O'qituvchilar uchun texnik ingliz tili", "Ta'lim muassasalarida muloqot uchun asosiy ingliz tilini o'qitish", "Ilmiy maqolalar va katta hajmdagi ishlarni yozish uchun ilg'or kurslar" kabi maxsus til kurslarini tashkil etish imkoniyati.

Ushbu seminar, avvalo, konferensiya ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot va ularning kelgusidagi hamkorligi, dunyoning turli burchaklaridagi universitetlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish uchun juda foydali bo'ldi.

2-kun davomida biznesga yo'naltirilgan guruhlar uchun ikki amaliy mashg'ulot ham o'tkazildi. Mashg'ulotlar davomida ishtirokchilar O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati va Markaziy Osiyo mamlakatlarida biznes yuritish xususiyatlari bilan tanishishdi. Bunday mashg'ulotlar ishtirokchilarga madaniyatlararo farqlar va xalqaro biznesning o'ziga xos jihatlari haqida qimmatli bilim olishga yordam berdi.

3-kun: AGH Universitetiga ekskursiya



Uchinchi kun AGH Universiteti binosi va kampusiga sayohat bilan boshlandi. Universitet xodimlaridan tashkil topgan gidlar yordamida ishtirokchilar ushbu ta'lim muassasasi tarixi va uning asoschisi haqida bat afsil ma'lumot olishdi.

Ushbu ekskursiya davomida zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan kimyo laboratoriyalari, muhandislik va robototexnika fakultetlari tashrif buyurildi. Ayniqsa, virtual haqiqat ko'zoynaklari va talabalar tomonidan takomillashtirilgan yordamchi robot bilan ishslash jarayonining namoyishi katta qiziqish uyg'otdi.

Ekskursiyaning oxirgi manzili butunlay kompyuter va innovatsion texnologiyalarga bag'ishlangan bino edi. Bu yerda yangi avlod





superkompyuterlari haqida batafsil taqdimot o'tkazildi va undan so'ng Prometey va Gelios nomli ikki model namoyish etildi. Ushbu yutuqlar universitetda texnologiya rivoji va ilmiy tadqiqotlarning yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi.


4-kun: Chet tillar kafedrasi rahbari bilan uchrashuv va Krakov Eski Shahar bo'y lab ekskursiya




To'rtinchi kun shunday tarzda rejashtirilganki, ertalab biz Chet tillar kafedrasi rahbari professor Anna Krukevich-Gatsiek bilan tanishishga muvaffaq bo'ldik. Suhbat davomida Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti va AGH universitetida chet tilini o'qitish tizimi, ikki kafedra o'rtaсиda mumkin bo'lgan hamkorlik, shuningdek, qo'shma ilmiy maqolalar, risolalar va tezislarni yozish va chop etish ehtimoli kabi mavzular muhokama qilindi.

Kun ikkinchi yarmi Krakov Eski Shahar bo'y lab piyoda ekskursiyaga bag'ishlandi. Tajribali gidning yordami bilan ko'plab foydali va qiziqarli ma'lumotlar olindi.

Yagellon universiteti Yevropadagi eng qadimgi universitetlardan biri bo'lib, 1364-yilda qirol Kazimir III tomonidan asos solingan. U Polsha fan va madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Universitetning mashhur bitiruvchilari orasida astronom



Nikolay Kopernik va boshqa ko‘plab taniqli shaxslar bor. Universitet o‘rtalar davrining o‘ziga xos muhitini saqlab qolgan, bu esa uni muhim madaniy va tarixiy obida qiladi.



olgan boy me‘morchilikka ega.

Krakov Ajdari shaharning tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan afsonaviy mavjudotdir. Afsonaga ko‘ra, ajdar Vavel tepaligining etagidagi g‘orda yashagan va jasur poyabzalchi tomonidan mag‘lub etilgan. Bugungi kunda, hattoki olov purkaydigan ajdar haykali Krakovning eng mashhur diqqatga sazovor joylaridan biri va shaharning ramzi hisoblanadi.

Vavel qasri — bu Polsha davlat ramzi bo‘lgan Vavel tepaligida joylashgan tarixiy qasrdir. Asrlar davomida bu joy Polsha qirollarining qarorgohi bo‘lgan. Qirollik saroyi, sobor va qirollik qabrlarining joylashganligi bilan ajralib turadi. Qasr gotika, Uyg‘onish va Barokko uslublarini o‘z ichiga



5-kun: Sertifikatlarni topshirish



Amaliyotning so‘nggi kuni ishtirokchilarga sertifikatlarni topshirishga bag‘ishlandi. Bu butun haftalik ishning yakuni bo‘lgan muhim voqeа edi. Mukofotlash marosimi davomida natijalar sarhisob qilinib, har bir ishtirokchining yutuqlari muhokama qilindi. Biz AGH Universitetida amaliyotda qatnashganligimiz va barcha belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarganligimizni tasdiqlovchi sertifikatga ega bo‘ldik.



CERTIFICATE

OF PARTICIPATION

This Certificate Presented to:

Bobir Yuldashev

For attending the 4th Edition of Erasmus+ International Staff
Teaching Week (13-17 January 2025) at AGH University
of Krakow held by Centre for International Affairs



Paweł Świerk
Director of Centre for International Affairs



Co-funded by
the European Union



CERTIFICATE

OF PARTICIPATION

This Certificate Presented to:

Feruzakhon Mavlanova

For attending the 4th Edition of Erasmus+ International Staff
Teaching Week (13-17 January 2025) at AGH University
of Krakow held by Centre for International Affairs



Feruzakhon Mavlanova
Director of Centre for International Affairs



Co-funded by
the European Union



Umumiy yutuqlar:

- ✓ Til to'siqlarini engib o'tish va akademik harakatchanlikni oshirish uchun ko'nikmalar olingan.
- ✓ Turli mamlakatlar ishtirokchilari bilan aloqalar o'rnatildi.
- ✓ Hamkorlikdagi tadqiqotlar va nashrlar uchun imkoniyatlar muhokama qilindi.
- ✓ Madaniy almashinuv va ta'lif tizimlarini birlashtirish muhimligini ta'kidladi.

Tillar kafedrasi assistentlari:

B.S.Yuldashev

F.Z.Mavlanova